



## TOSHKENT VILOYATI CHINOZ TUMANI HOKIMI F A R M O Y I S H I

2022 - yil 19 - avgust

242-10-144-F/22

Chinoz tuman hokimligi

### Mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 25-moddalari va Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi VI-44-4-10-0-K/22-sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. Aripov raisligida 2022-yil 26-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent-Samarqand" temir yo'li yo'nalishi bo'ylab amalga oshirilgan tadbirlarni jadallashtirish yuzasidan o'tkazilgan sayyor yig'ilishi" 147-sonli bayoni (01-05/1-3274-son 02.07.2022-yil) bilan, temir yo'l bo'ylab amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-avgustdagi 438-sonli farmoyishining ijrosini ta'minlash maqsadida hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 16-avgustdagi 295-10-0-F/22-sonli farmoyishiga asosan,

1. Respublika budjetidan Toshkent viloyat mahalliy budjetiga ajratilgan mablag'lar hisobidan Chinoz tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga "Toshkent-Samarqand" temir yo'li yo'nalishi bo'ylab joylashgan turar joylarning tashqi ko'rinishi (fasad qismi)ni tartibga keltirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari uchun 3 000 000.0 ming (uch milliard) so'm mablag' ajratilsin.

2. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (B.Isroilov) belgilangan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi"da tegishli o'zgartirishlarni kiritishni ta'minlasin.

3. Tuman G'aznachilik bo'linmasi (M.Akromov) ajratilgan mablag'larni

belgilangan tartibda o'tkazilishini ta'minlasin.

4. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (F.Xidirov) ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlasin.

5. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari v.v.b. M.Zufarov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**B.Alimbekov**